

## **TARBIYACHILAR EKALOGIK SAVODXONLIGINING BOLALAR HAYOTIDAGI AHAMIYATI.**

*Usarova Muborak Xabibulla qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti*

*Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasи o‘qituvchisi*

*[usarovamuborak5@gmail.com](mailto:usarovamuborak5@gmail.com)*

+99894-770-79-20

*Obidova Dilnoza Faxriddin qizi*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Urgut filiali Pedagogika va tillarni o‘qitish fakulteti*

*Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi*

### **Abstract**

This article discusses how the well-developed environmental education and upbringing of educators contributes to the proper development of children's environmental education and upbringing, and is the first step taken by the younger generation towards achieving environmental sustainability.

### **Аннотация**

В статье рассматривается, как грамотно развитое экологическое образование и воспитание педагогов способствует правильному формированию экологического образования и воспитания детей, а также является первым шагом подрастающего поколения на пути к достижению экологической устойчивости.

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada tarbiyachilarning ekologik ta‘lim va tarbiyasining yaxshi rivojlanganligi bolalarning ekologik ta‘lim-tarbiyasining to‘g‘ri rivojlanishiga sabab bo‘lishi, yosh avlodning ekologik barqarorlikka erishish yo‘lida amalga oshirgan dastlabki qadam ekanligi haqida so‘z boradi.

**Keywords:** ecological knowledge, ecological education, activity, process, potential, method, journey, efficiency, improvement, environment, factor.

**Ключевые слова:** экологические знания, экологическое образование, деятельность, процесс, потенциал, метод, путешествие, эффективность, улучшение, окружающая среда, фактор.

**Kalit so‘zlar:** ekologik bilim, ekologik tarbiya, faoliyat, jarayon, salohiyat, metod, sayr, samaradorlik, takomillashtirish, muhit, omil.

Dunyodagi jamiki jonli va jonsiz narsalar tabiat bilan o‘zaro uzviy bog‘langan. Tabiat shunday kuchga egaki uning kuchiga hech qanday kuch teng kela olmaydi.

Inson tabiat kuchlari oldida ojizdir. Insonning tabiat uchun eng katta qiladigan ishi bu tabiatni tabiiyligini buzmaslik, unga ozor bermaslikdir.

**Ekologik ta'lim** - tarbiyani bolalarni yoshligidan ularning ongida singdirib borish ijobiy natijalarga olib keladi. Uzluksiz ta'lim tizimida ekologik ta'limni yo'lg'a qo'yish va uni amalga oshirish uchun avvalo sharoitni yaratish va kadrlar salohiyatiga e'tibor qaratish, malakasini oshirish maqsadga muvofiqdir. Ekologik ta'limni yaxshi o'zlashtirgan talaba kelgusida yaxshi kadr bo'lib yetishadi. Ekologik ta'lim va tarbiya quyidagi asosiy bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Bolalar tabiat go'zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq oling ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatları, tabiat bilan jamiyat o'rtaşıdagi murakkab o'zaro munosabatlari, inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri oqibatlari haqida bilim berish.

3. Bolalarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan to'g'ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo'lib, kishilarda tabiat oldida mas'uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Tarbiyachilarning ekologik ta'lim va tarbiyasining yaxshi rivojlanganligi bolalarning ekologik ta'lim - tarbiyasining to'g'ri rivojlanishiga sabab bo'ladi bu esa yosh avlodning ekologik barqarorlikka erishish yo'lida amalga oshirgan dastlabki qadam desak mubolag'a bo'lmaydi. P.G.Samorukov tomonidan maktabgacha yoshdag'i bolalarga ekologik ta'lim berishda usullarni qo'llagan holda olib borilsa samarali natijaga erishiladi degan fikrni ilgari su radi. Bu usularni albatta tarbiyachi bilishi zarur bu usullar quyidagicha namoyon bo'ladi: 1. Vizual usullar – bu usulga kuzatish, rasmlarni tomosha qilish, filmlar kiradi. Kuzatish bolalarni tabiatga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni topqirlikka, izlanuvchanlikka chorlaydi. 2. Amaliy usullar – o'yin, elementar tajribalar, modellashtirish. O'yin nafaqat bolalarga balki kattalarga ham ta'lim berishning eng samarali va qiziqarli usullaridan biri bo'lib xizmat qiladi. O'yin natijasida bolalarning ekologik bilimi oshadi, tabiatning estetik g'o'zalligini ko'ra bilish, bolalarda insoniy tuyg'ularni mehribonlik, tabiatga ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik qilish, do'stona munosabatlar shakllanadi. 3. Og'zaki usullar – tarbiyachi va bolalarning hikoyasi, tabiat tarixi adabiyoti, suhbatlar. Tarbiyachi bolalarga ekologiya haqida suhbat qilishdan oldin o'zi ekologik bilimga ega bo'lishi, bolalarga ekologik suhbatlarni tashkil qilish va ularni ham rasmlarga qarab hikoyalar qilishga o'rgatishi zarur. Tarbiyachi bolalarga ekologik ta'lim berishda yuqorida aytganimizdek ularning yosh xususiyatlariga e'tibor berishi zarur, ekologik ta'limni tashkil qilishi uchun dastlab tarbiyachi guruhda yoki maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik burchaklarni tashkil qilishi maqsadga muvofiq ish sanaladi. Ekologik burchaklarni tashkil qilishda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlariga e'tibor qaratishi zarur. Tarbiyachilar ekologik bilimini rivojlantirishning metodik

tizmini tashkil qiluvchi omillar mavjud va quyidagilardan iborat 1. Mashg'ulotlarni guruhli tarzda tashkil qilish va olib borish, guruhda kommunikativ aloqalar umumiyligi – tabiiy aloqalarni vujudga keltiradi 2. Ekologik ko'nikmalarga ega bo'lish, ekologik muammolarni aniqlash va ekologik tadqiqot ishlarini amalgalash oshirish, ekologik faoliyatni yo'lga quyish vazifasini o'tashi kerak, - Ekologik barqarorlikka erishish yo'lida jamiyat, ekologik tuzilmalar, tabiatni muhofaza qilish organlari bir-biri bilan uzviyligining mavjudligi. Tabiyachilar ekologik bilimini rivojlantirish metodik tuzilishi bir nechta bosqichlarni o'z ichiga oladi: Birinchi bosqich – motivatsion refleksif bosqich. Bu bosqichda tarbiyachilar egallayotgan bilimlarning muhimligini ongli his qilishi, shuningdek maqsad va vazifalarni to'g'ri namoyon qilishi lozim. Bunda tarbiyachilar ekologik jarayon, ekologik tashabbuskorlik va ekologik bilimning mazmuni bilan tanishadi, shuningdek tarbiyachilar tomonidan egallanayotgan fan, bilim sentiz qilinadi. Bu bosqichda tarbiyachilar ekologik jarayonlarni ongli his qilishi uchun muhit yaratiladi (atrof – muhitda ro'y beradigan berayotgan inqirozlar, vediolahalar, tabiatning tabiiyligining yo'q bo'lib ketyotganli haqida) Bu bosqichdagi pedagogik laborotoriyalarning mohiyati hayotda ro'y berayotgan voqe va jarayonlarni loyihalash, ekologik ta'limni hayotdagi faoliyatga yaqinlashtirish va u orqali ekologik ma'daniyat sifatlarining shakllanishi, hayotdagi qadriyatlarni tushunish natijasida tarbiyachining o'z "meni"ning hosil bo'lishi va tabiat bilan muvozanatli aloqalarni yo'lga qo'yish. Ikkinci bosqich – reproduktiv ta'limiy. Bu bosqichda tarbiyachi tarbiyachi ekologik bilimlarni amaliy tajribalarda qo'llash natijasida uni rivojlantirish. Loyiha algaritmlarini egallah, tarbiyachilarda ijodkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Uchinchi bosqich – konstruktiv. Bu bosqichda tarbiyachilar egallagan metodlarini ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni takidlash joizki tarbiyachilarining ekologik bilimini rivojlantirish uchun quyidagi ishlar amalgalash oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi: 1. Ta'lim tizimida ekologik ta'limga va kadrlar salohiyatiga e'tibor qaratish; 2. Ta'lim tizimida ekologik ta'lim sohasidagi standartlarni chet davlatlar ekologik ta'lim standarti bilan uyg'unlashtirish; 3. Ta'lim tizimida ekologik ta'lim masalalari bo'yicha, o'quv - metodik markazlar tashkil etish; 4. Ta'lim tizimida ekologik ta'limni targ'ib qilish, treninglar, davra suhbatlari, konferensiylar tashkil qilish, chet el ekologik ta'limini o'rghanish va yosh davrlarga mos sifatli ekologik ta'lim dasturlarni yaratish; 5. Ekologik ta'limni rivojlantirish maqsadida turli ekologik ko'rgazmali qo'rollar, darsliklar, mediafilmlarni yaratish, shuningdek o'z mutaxassisligining bilimdoni, va ekologik bilimga ega bo'lgan, mustaqil fikrladigan kadrlar tayyorlash; 6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekologik burchaklarni sifatli tashkil qilish va sharoit yaratish.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar**

1. Nigmatov A. N. Ekologiyaning nazariy asoslari: o‘quv qo‘llanma / A. Nigmatov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. -Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
2. To‘xtayev A. S. Ekologika institutlarining talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. T., «O‘qituvchi», 1998.
3. Равен.Дж. Компетентность в современном обществе. Выявление развитие и реализация- М 2002 ( англ. 1984)
4. Зеер.Э.Ф Компетентностный подход к образованию. Уральское отделение Российской Академии Образования 2004// асайеш1а@игогао.ги